



TERRORCHILIK HARAKATLARI SODIR BO‘LGANDA BOSHQARUV ORGANLARINING ISH TARTIBI VA AVARIYA-QUTQARUV ISHLARINI O‘TKAZISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20083014>

Mamajonov Azizbek Tojimamatovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi, rezervdagi podpolkovnik

Annotatsiya. *Ushbu maqolada terrorchilik harakatlari sodir bo‘lganda boshqaruv organlarining ish tartibi va avariya-qutqaruv ishlarini o‘tkazishni boshqarish, asosiy chora-tadbirlar, terrorchilik harakatlari sodir bo‘lganda tibbiy-sanitar xizmati ko‘rsatish, terrorchilar tomonidan aholi ko‘p to‘planadigan joylarda xavfli zaharli moddalar qo‘llanilganligining birlamchi belgilarilari, kundalik faoliyat tartibi, yuqori tayyorgarlik tartibi, favqulodda vaziyatlar tartibi haqida yozib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *terrorchilik, global xavfsizlik, avariya-qutqaruv ishlari, fuqaro muhofazasi, favqulodda vaziyatlar, kimyoviy zaharli moddalar.*

Аннотация. *В данной статье описывается порядок работы органов управления и организации аварийно-спасательных операций в случае террористических актов, основные меры, обеспечение медико-санитарной помощи в случае террористических актов, основные признаки применения террористами опасных токсичных веществ в местах массового скопления людей, порядок проведения бытовых мероприятий, порядок действий в условиях повышенной готовности, порядок действий в чрезвычайных ситуациях.*

Ключевые слова: *терроризм, глобальная безопасность, аварийно-спасательные операции, гражданская защита, чрезвычайные ситуации, химические токсичные вещества.*

Abstract. *This article describes the procedure for the work of management bodies and the management of emergency and rescue operations in the event of terrorist acts, the main measures, the provision of medical and sanitary services in the event of terrorist acts, the primary signs of the use of dangerous toxic substances by terrorists in crowded places, the procedure for daily activities, the procedure for high readiness, the procedure for emergency situations.*

Keywords: *terrorism, global security, emergency and rescue operations, civil protection, emergency situations, chemical toxic substances.*



Terrorizm bugungi kunda global xavfsizlikka eng katta tahdid sifatida qaralmoqda. U nafaqat inson hayoti va jamiyat barqarorligiga, balki davlat suvereniteti, iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro munosabatlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, terrorchilik harakatlari sodir bo'lganda boshqaruv organlarining ish tartiblari ilmiy asoslangan, huquqiy jihatdan mustahkam va amaliy mexanizmlar bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Ayni paytda butun dunyoda, jumladan, yon-atrofimizda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda, ayrim hududlarda qurolli to'qnashuvlar hamon davom etmoqda. Ana shunday keskin vaziyatdan kelib chiqqan holda, mavjud tahdidlarga qarshi munosib zarba berishga tayyor bo'lishimiz, O'zbekistonning tinch va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida Qurolli Kuchlarimizni yanada isloh qilish, uning jangovar tayrgarligi va qobiliyatini yuksaltirish bo'yicha kelgusida amalga oshiradigan ishlarimizni izchil davom ettirishimiz zarur” [1].

Terrorchilik harakatlari sodir bo'lganda boshqaruv organlari faoliyati O'zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida”gi qonuni asosida tartibga solinadi. Bu tartiblar xavfsizlikni ta'minlash,

fuqarolarni himoya qilish va terrorchilarni zararsizlantirishga qaratilgan. Terrorizm zamonaviy davrda eng xavfli global tahdidlardan biridir. U nafaqat inson hayoti va jamiyat barqarorligiga, balki davlat suvereniteti va iqtisodiy taraqqiyotga ham katta zarar yetkazadi. Shu bois, terrorchilik harakatlari sodir bo'lganda boshqaruv organlarining aniq va muvofiqlashtirilgan ish tartiblari mavjud bo'lishi zarur.

Yashirincha qurol sotish xalqaro terrorizm deb atalmish jinoiy hodisa bilan birga yuradi, ba'zan esa uni keltirib ham chiqaradi. O'zgalar qonini to'kish hisobiga mo'may daromad olishni istovchilar anchagina topiladi. Bu toifaga kiruvchi “bizneschilar” uchun qon va nopok siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko'rish mumkin bo'ladigan mojarolarni rag'batlantirish borasida eng qulay vosita bo'ladi. Tadqiqotchi Sh.G'oyibnazarovning keltirishicha 1990 yillarda nolegal qurol-yarog' savdosi 1-2 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, qator harbiy harakatlar sodir etilayotgan yillarda 54 (Yugoslaviya inqirozi) bu ko'rsatkich 5-10 mlrd. dollarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich qiyosiy tahlil etilganida qurol - yarog'savdosida jahonda yetakchi davlatlardan AQSH ning oddiy qurollar savdosi bo'yicha amalga oshiradigan eksport hajmiga tenglashib boradi [3].

Terrorchilik harakatlari sodir bo'lganda tibbiy-sanitar xizmati



ko'rsatishga aloqador muassasalar va tuzilmalar boshqaruv organlari, yuzaga kelgan vaziyatga va kutilayotgan yoki sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar miqyosiga ko'ra aniq bir hududda FVDT quyi tizimlarining faoliyat ko'rsatish bo'yicha quyidagi tartiblardan birini joriy etadi: *kundalik faoliyat tartibi* - odatdagi ishlab chiqarish faoliyatida va terrorchilik harakatlari sodir etilishi to'g'risida hech qanday bashorat mavjud bo'lmagan vaqtda; *yuqori tayyorgarlik tartibi* - kimyoviy zaharli moddalar ishlatish bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakati sodir etilishi to'g'risida ma'lumot olinganda, ishlab chiqarish yoki kimyoviy vaziyat yomonlashganda; *favqulodda vaziyatlar tartibi* - yopiq binolar yoki ochiq aholi ko'p to'planadigan joylarda kimyoviy zaharli moddalar ishlatish bilan terrorchilik harakatlari sodir etilganda.

Asosiy chora-tadbirlar:

Kundalik faoliyat tartibida:

1. Fuqaro muhofazasi xizmatlari va tuzilmalar mutaxassislari aholi ko'p to'planadigan yopiq binolar va ochiq joylarda zaharli kimyoviy moddalar ishlatish yo'li bilan terrorchilik harakatlari sodir etilganda muhofazalanish usullariga o'rgatish. 2. Aholini yopiq binolar va ochiq joylarda zaharli kimyoviy moddalardan muhofazalanish chora-tadbirlariga o'rgatish, shuningdek zaharli kimyoviy moddalar ishlatish yuli bilan amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari sodir etilganda bo'lishi mumkin bo'lgan

qurbonlar soni hamda moddiy zarar miqdorini imkon darajasida kamaytirish yuzasidan maxsus-taktik o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, tashkillashtirish hamda o'tkazish. 3. Shaxsiy himoya vositalari zahirasini yaratish, to'ldirib borish va ishlatishga yaroqlilik holati ustidan nazorat o'rnatish. 4. Favqulodda vaziyatlar, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash, Mudofaa va boshqa manfaatdor vazirliklarning hamkorlikda harakat qilish rejalariga aniqliklar kiritish.

Yuqori tayyorgarlik

tartibida: 1. Terrorchilik harakati sodir etilishi mumkin bo'lgan hududda FVDT quyi tizimlari faoliyatiga bevosita rahbarlik qilishni mazkur faoliyatga taalluqli komissiyaga topshirish masalasini hal etish. 2. Zaharli kimyoviy moddalar ishlatish yo'li bilan terrorchilik harakatlari sodir etilishi mumkin bo'lgan joylarda kimyoviy vaziyatni aniqlash uchun tezkor guruhlar tuzish. 3. Kuch va vositalarni tayyor holga keltirish, ularni zaharli kimyoviy moddalar ishlatish yuli bilan terrorchilik harakatlari sodir etilishi mumkin bo'lgan hududlarda harakat qilish rejalariga aniqliklar kiritish.

Favqulodda vaziyatlar tartibida:

1. Terrorchilik harakati sodir etilgan hududga mutaxassislarni yuborish. 2. Terrorchilik harakatida ishlatilgan kimyoviy modda turini aniqlash. 3. Atrof-muhitni xavfli zaharli moddalar bilan zaharlanish ko'rsatkichlari va zaharli moddaning xavflilik darajasini aniqlash. 4. Vaziyatning rivojlanishini oldindan baholash (favqulodda vaziyat miqyosi,



sanitar yo'qotishlar hisobi). 5. Muhofaza tadbirlarini amalga oshiruvchilar yuzasidan tavsiyalar tayyorlash (qutqaruvchilar, tibbiyot xodimlari, aholi). 6. Tibbiy tuzilmalar joylashgan joylarda sanitar-toksikologik vaziyatni baholash. 7. Zaharlanish hududida zaharlanganlarga shoshilinch tibbiy yordam (maxsus antidotlar bilan davolash, shoshilinch ko'rsatmalarga ko'ra) yordam ko'rsatish. 8. Ixtisoslashgan shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. 9. Zaharlanish hududidagi odamlarni terrorchilik harakatida qo'llanilgan kimyoviy moddaning ta'sir qilish xususiyatlariga ko'ra ekspress uslublar va diagnostik testlar yordamida tekshiruvdan o'tkazish. 10. Zaharlanishning asosiy klinik belgilari kompleksi hamda diagnostik testlar natijalari asosida, qo'llanilgan zaharli moddaning odam organizmiga ta'sirini aniqlash. 11. Terrorchilik harakatida ishlatilgan xavfli zaharli modda turini klinik-laborator tekshirishlar natijalari asosida aniqlash. 12. Shikastlanganlarning zaharlanganlik (ifloslanganlik) darajasi va sanitar ishlov berishning maqsadga muvofiqligini baholash. 13. Zaharlanganlarning teri qoplamalari, ko'z va og'iz bo'shlig'ining shilliq pardalariga sanitar ishlov berish va uning natijalarini baholash. 14. Davolash-profilaktika muassasalari mutaxassislariga xavfli zaharli moddalar bilan o'tkir zaharlanganlarga tezkor tashxis qo'yish va davolash tadbirlari yuzasidan tavsiyalar berish.

15. Terrorchilik harakati sodir etilgan joydagi tibbiyot muassasalari xodimlariga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatishni tashkillashtirish va amalga oshirish.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida favqulodda vaziyatlar vaziri A. Qo'ldoshevning "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatining samaradorligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi [4].

Tashkiliy va muhandislik - texnik tadbirlar majmuining oldindan o'tkazilishi terrorchilik harakatlari amalga oshirilishining oldini oladi yoki xavfli zaharli moddalar bilan zaharlanish hududlari ko'lamini maksimal darajada kamaytiradi, qurbonlar sonining imkon darajasida kam bo'lishiga, moddiy zararlarning kamayishiga omil bo'lib hisoblanadi.

Terrorchilar tomonidan aholi ko'p to'planadigan joylarda xavfli zaharli moddalar qo'llanilganligining birlamchi belgilarilari quyidagilardan iborat:

joylarda no'malum suyuqlikning to'kilganligi;

kelib chiqishi noma'lum bo'lgan tomchilar va tutunning paydo bo'lishi;

noma'lum, o'ziga-xos hidlarning paydo bo'lishi;

yordam so'rab baqirishlar, tartibsizlik, qo'rquv, xavotir, zaharlanishning birlamchi belgilarining paydo bo'lishi;



kimyoviy razvedka va nazorat asboblarning ko'rsatkichlari.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi" to'g'risidagi qonunida fuqaro muhofazasi atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: fuqaro muhofazasi – harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O'zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlarning davlat tizimidir [2].

Xavfli kimyoviy zaharli moddalar qo'llanilishi bilan amalga oshirilgan terrorchilik harakati to'g'risida metro stansiyalari boshliqlari, tashkilotlar (korxonalar, muassasalar) rahbarlari, konsert (sport) zallari direktorlari va ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan boshqa joylar uchun mas'ul xodimlar yuzaga kelgan favqulodda vaziyat tug'risidagi mavjud har qanday aloqa vositalari yordamida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tuzilmalariga birinchi navbatda og'zaki, keyinchalik o'rnatilgan tartibda yozma axborot beradilar.

Metro bekatlaridagi yo'lovchilar, konsert (sport) zallari, komplekslar yoki o'yingohlardagi tomoshabinlarni ko'chirish tadbirlari Favqulodda vaziyatlar vazirligi qutqaruv xizmati tuzilmalari yetib kelgunga qadar mazkur muassasa xizmat ko'rsatuvchi xodimlari va jamoat tartibini saqlash xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Ko'chalar va maydonlardagi aholini

ko'chirish tadbirlari jamoat tartibini saqlash xizmati xodimlari, keyinchalik esa FVV qutqaruvchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Ko'chirish tadbirlari davomida qo'llanilgan xavfli zaharli modda turi, terrorchilik harakati sodir etilgan joy, zaharli moddaning taxminiy miqdori, odamlar ko'p to'planadigan joy va zaharlanish hududida zaharli modda konsentratsiyasi, shamol yo'nalishi va tezligi, voqea joyidagi havo harorati, ko'chiriladigan odamlarning taxminiy soni, eskalatorlarning o'tkazish qobiliyati, bino, ko'cha, yo'l, maydondan chiqish joylarining soni, odamlarni ko'chirish tadbirlarining davomiyligi inobatga olinadi. Yo'lovchilar, tamoshabinlar, ommaviy tadbirlar ishtirokchilari piyoda, obyekt rahbari yoki tadbir o'tkazilishiga mas'ul xodim ko'rsatmasiga ko'ra belgilangan yo'nalish bo'yicha ko'chiriladi. Agar zaharlangan odam zaharlanish hududidan o'zi chiqib keta olmasa, unga qutqaruvchilar tomonidan nafas yo'llarini himoya qilish vositalari kiydirilib, zarurat bo'lganda antidot yoki og'riqsizlantiruvchi vosita yuboriladi va zudlik bilan zaharlanish hududidan olib chiqiladi. Zaharlangan odamga zaharlanish hududidan tashqari joyda birinchi tibbiy va shifokorgacha, zarurat bo'lganda birinchi vrachlik yordami ko'rsatiladi.

Favqulodda vaziyat o'chog'ida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan ximik-razvedkachilar tomonidan razvedka o'tkaziladi. Shaxsiy himoya vositalari



kiyilib, meteo asbob-anjomlarni ishchi holatga keltiriladi. Kimyoviy razvedka va o'lov asbob-anjomlari yordamida kimyoviy zaharlanish hududi, zaharli modda turi aniqlanadi, kimyoviy zaharlanish manbai izlab topiladi, zaharli modda bulutining harakatlanishi kuzatiladi, zaharlanganlarni ko'chirish yo'nalishlari belgilanadi, zona atrofiga chegaralovchi va ko'rsatuvchi belgilar o'rnatiladi. Xavfli kimyoviy modda aniqlanganligi va zaharlanish hududi to'g'risida guruh komandiriga axborot beriladi.

Xavfli zaharli moddalar to'kilgan, tomchilar, aerozollar aniqlangan joylar; xavfli zaharli modda bug'lari kirgan xonalar havosi; zaharlangan hududda ishlagan texnika vositalarining yuzalari; qutqaruvchilarning maxsus kiyim-kechaklari va shaxsiy himoya vositalari; zaharlangan hududda bo'lgan yo'lovchilar, tomoshabinlar, ommaviy tadbirlar ishtirokchilarining ustki kiyimlarini kimyoviy nazoratdan o'tkazish talab etiladi.

Kimyoviy nazorat o'tkazilishidan oldin nazorat obyektida zararsizlantirish uchun ishlatilgan vositalardan tozalanadi, aks holda tekshirish obyektlarida zaharli moddalar mavjudligini aniqlashda noqulayliklar kelib chiqarishi mumkin. Zararsizlantirish (degazatsiya) natijalarini baholash maqsadida sinamalar zararlangan yuzalardan-surtma; havo sinamalari-sorbentli trubkalar orqali havoni haydash; shaxsiy himoya vositalari va maxsus kiyim-kechaklardan

erituvchilar bilan ekstraksiya qilish yoki issiq havo bilan desorbsiya qilish yo'li bilan olinadi.

Zararlangan (ifloslangan) shaxsiy himoya vositalari va kiyim-kechaklarni maxsus ishlov berish punktlariga yuborish uchun yig'ib olish tadbirlari avariya-tiklash ishlari yakunlangach, qutqaruvchilar zaharlanish o'chog'idan chiqqanlaridan yoki aholi ko'chirilgandan so'ng amalga oshiriladi. Zararlangan (ifloslangan) shaxsiy himoya vositalari va kiyim-kechaklarni yechish hamda yig'ib olish uchun "toza" va "tozalanmagan" bo'laklardan iborat maydon tayyorlanadi. Maydonni shunday hozirlash kerakki, "toza" bo'lak "tozalanmagan" bo'lakning shamol esish yo'nalishi tomonida bo'lishi lozim. Maydon, "toza" va "tozalanmagan" bo'laklar chegaralari, harakatlanish yo'nalishlari, jabrlangan shaxsiy himoya vositalari va kiyim-kechaklar yig'iladigan joy va sanitariya o'tish joylariga borish yo'nalishlari belgilanadi, ogohlantiruvchi hamda ko'rsatuvchi belgilar o'rnatiladi. Maydonning "tozalanmagan" bo'lagi chegaralanadi va "zaharlangan" yozuvli belgilar o'rnatilib, ushbu maydonda jabrlangan buyumlarni saralash va saqlash maydonchalaridan iborat omborxonalar tayyorlanadi. Omborxonalar "toza" va "tozalanmagan" bo'laklar orasidagi chegaradan 100-150 metr uzoqlikda joylashtiriladi. Maydonda buyumlarni yog'ingarchiliklardan ho'l bo'lishdan saqlash maqsadida palatkalar o'rnatiladi. Omborxonalar va maydonni



“toza” bo‘lak bilan va bir-biri bilan aravachalar hamda sanitar zambillar bilan o‘tish imkoni bo‘lgan yo‘lakchalar ajratib turadi. “toza” va “tozalanmagan” bo‘laklar oralig‘idagi maydonda shaxsiy himoya vositalarini yechish maydonchasi jihozlanadi.

Shaxsiy himoya vositalarini yechish mustaqil ravishda yoki yechintiruvchilar yordamida amalga oshiriladi. Yechilgan zararlangan buyumlar turlari bo‘yicha saralanadi, ya‘ni izolyatsiyalovchi nafas olish anjomlari, gazniqoblar, terini himoya qilish shaxsiy himoya vositalari, kiyim-kechaklar va boshqalar. Saralangan buyumlar rezina (polietilen) qoplarga joylanib, xafli kimyoviy moddaning turi, buyumlar nomi va zararlangan vaqti ko‘rsatilgan yorliqlar o‘rnatiladi hamda zararsizlantirish (degazatsiyalash) punktlariga yuboriladi. Shaxsiy himoya vositalarini yechish, saralash, qadoqlash va ortishda ishtirok etadigan shaxsiy tarkib terini muhofazalovchi shaxsiy himoya vositalari hamda gazniqoblarda bo‘lishlari shart.

To‘liq sanitar ishlov berish tadbirlari maydonning “toza” bo‘lagida amalga oshiriladi. Buning uchun bitta yoki ikkita

sanitariya ishlov o‘tkazish joyi yoyiladi. Sanitariya o‘tkazish joyi yechinish, yuvinish va kiyinish bo‘limlaridan iborat bo‘ladi. Yechinish bo‘limida shaxsiy tarkib bosqichma-bosqich bosh kiyimlari, oyok kiyimlari, ustki kiyimlari va ichki kiyimlarini yechadi. Kiyim kechaklar tugilib, sanitariya ishlovidan o‘tkazish uchun topshiriladi. Hujjatlar va shaxsiy buyumlar alohida topshiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, terrorchilik harakatlari sodir bo‘lganda boshqaruv organlarining ish tartiblari huquqiy asoslar, amaliy mexanizmlar va xalqaro hamkorlik tamoyillariga tayanadi. Har bir bosqichda muvofiqlashtirilgan va kompleks yondashuv qo‘llaniladi. Terrorchilik harakatlari sodir bo‘lganda boshqaruv organlarining ish tartiblari koordinatsiya, tezkorlik va kompleks yondashuv tamoyillariga asoslanadi. Har bir organ o‘z vakolatiga muvofiq harakat qiladi, biroq ularning faoliyati yagona tizimda uyg‘unlashadi. Bu tizimning asosiy maqsadi – fuqarolar xavfsizligi, davlat barqarorligi va jamiyat tinchligini ta‘minlashdir.

ADABIYOTLAR:

1. 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 790-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.
2. 2000-yil 26-maydagi “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi 80-II-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.
3. G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T., 2009, 64-b



Latin American Journal of Education

www.lajoe.org



4. <https://parliament.gov.uz/oz/news/favqulodda-vaziyatlar-boyicha-davlat-tizimi-faoliyatiga-baho-berildi#>!